



Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumda tikuvchilik yo'nalishi o'quvchilarini ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlashning ahamiyati

Mannabova Gulmira Kaxxorovna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda o'quvchilarning mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo'lib shakllanishidagi ahamiyati tahlil qilingan. Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi misolida, tikuvchilik yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilarni kasbiy tayyorlash va ishlab chiqarish faoliyatiga moslashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, tikuvchilik kasbining imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: maxsus ta'lim, tikuvchilik, ishlab chiqarish, dual ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, imkoniyati cheklangan shaxslar, bandlik, ijtimoiy moslashuv.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ularga sifatli ta'lim berish va kasb-hunar egallashlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat nazariy bilim berish, balki o'quvchilarni mustaqil hayotga va mehnat faoliyatiga tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumda amalga oshirilayotgan kasbiy ta'lim jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tikuvchilik yo'nalishi o'quvchilarning qiziqishi, jismoniy imkoniyatlari va mehnat bozoridagi talablarni hisobga olgan holda eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tikuvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyati. Tikuvchilik insondan diqqat, aniqlik, sabr-toqat va mas'uliyat talab qiladigan kasbdir. Ushbu kasbni egallash jarayonida o'quvchilar tikuv mashinalaridan foydalanish, matolar bilan ishlash, andaza tayyorlash, mahsulotlarni bichish va tikish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Tikuvchilik yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilar o'z qo'llari bilan tayyorlagan mahsulotlar natijasini ko'rib, mehnatining samarasini his qiladilar. Bu esa ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, mehnatsevarlikni shakllantiradi va kelajakda mustaqil hayot kechirishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.





Kasb egallash imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatga moslashuvi, iqtisodiy mustaqilligi va o'z salohiyatini namoyon etishida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli tikuvchilik kasbi nafaqat mutaxassislik, balki ijtimoiy integratsiyaning samarali vositasi sifatida ham e'tirof etiladi.

Texnikumda tikuvchilik fanlarini o'qitishda nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar dastlab oddiy tikuv operatsiyalarini bajarishni o'rganib, keyinchalik murakkab mahsulotlarni tayyorlash bosqichiga o'tadilar.

Amaliy mashg'ulotlar davomida ular:

- tikuv mashinalaridan foydalanish;
- turli chok turlarini bajarish;
- kiyim detallarini birlashtirish;
- mahsulot sifatini nazorat qilish;
- texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Bu jarayon o'quvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish bilan bir qatorda ularda mas'uliyat, intizom va jamoada ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik tajribasi. Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumining faoliyatida ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi.

Bugungi kunda bir qator tikuvchilik korxonalari texnikum bilan hamkorlik qilib, ishlab chiqarish buyurtmalarini taqdim etmoqda. Mazkur buyurtmalar asosida o'quvchilar ustozlar nazorati ostida turli mahsulotlarni tikish jarayonida ishtirok etadilar. Bu esa ularga haqiqiy ishlab chiqarish muhitini o'quv davridayoq his qilish imkonini beradi.

Korxonalardan keladigan buyurtmalar ustida ishlash davomida o'quvchilar mahsulot sifati, ishlab chiqarish intizomi, buyurtmachi talablari va belgilangan muddatlarga rioya qilish kabi muhim kasbiy tajribalarni egallaydilar. Natijada ular mehnat bozoriga tayyor mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Muhim jihatlardan biri shundaki, bajarilgan ishlar uchun o'quvchilarga mehnat haqi to'lanadi. Bu esa ular mehnatga nisbatan mas'uliyat hissini kuchaytiradi, iqtisodiy mustaqillikni shakllantiradi va kelajakdagi ish faoliyatiga motivatsiya beradi.

Dual ta'lim elementlarining ahamiyati. Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik dual ta'lim tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradi. Ya'ni o'quvchi bir vaqtning o'zida ham ta'lim oladi, ham ishlab chiqarish jarayonida amaliy tajriba orttiradi. Bunday yondashuv quyidagi afzalliklarni beradi:

- nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash;



- zamonaviy ishlab chiqarish talablari bilan tanishish;
- mehnat intizomini shakllantirish;
- ish beruvchilar bilan bevosita aloqalarni yo'lga qo'yish;
- bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshirish.

Bugungi kunda mehnat bozorida ish tajribasiga ega mutaxassislariga talab yuqori bo'lib, dual ta'lim tizimi ushbu ehtiyojni qondirishga xizmat qilmoqda.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda pedagogning roli nihoyatda muhimdir. O'qituvchi nafaqat kasbiy bilimlarni beradi, balki o'quvchilarni ruhiy qo'llab-quvvatlaydi, ularning qobiliyatlarini aniqlaydi va rivojlantiradi.

Har bir o'quvchining imkoniyati va qobiliyati turlicha bo'lganligi sababli individual yondashuv qo'llaniladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga va har bir o'quvchining muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumida tikuvchilik yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning kasbiy shakllanishi, ijtimoiy moslashuvi va bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonining ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyalashuvi o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi, mehnat bozoriga tayyorlaydi va kelgusida muvaffaqiyatli ishga joylashishlari uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu sababli tikuvchilik yo'nalishida ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ta'limni yanada rivojlantirish, korxonalar bilan hamkorlikni kengaytirish va dual ta'lim elementlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
3. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
6. Po'latov Sh.R. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2020.
7. Rasulova M., Tursunova D. Tikuv buyumlari texnologiyasi. – Toshkent: Cho'lpon, 2019.
8. Abdukarimov K.A. Yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.

